


## PESHTOQLAR

*Sa'dullayeva Nigora Bahrom qizi<sup>1</sup>*

*Norqulova Munisa Dilmurod qizi<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola madrasa, maqbara va masjidlarda keng qo'llanilgan peshtoqlar haqida. Peshtoq turlari hamda unda ishlatilgan bezaklar, islimiy naqshlar bilan bezatilgan maqbaralar haqida keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Peshtoqlar, koshinlar, ravoqlar, Arab ota maqbarasi, girih naqshlari, zoomorf naqshlari, Tillakori madrasasi.



**Peshtoq** - madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy va boshqa binolarning old tomoni - asosiy kirish qismi. Peshtoq binoning hashamatli baland, bezakdor me'moriy bo'lagi bo'lib, odatda, bino devori sathidan bir oz bo'rttirib chiqariladi. Asosiy o'rinni markaziy ravoq, uning ikki yonidagi dahanasi va tepasidagi ikki uchburchak qanos va kitoba tashkil etadi.

**Peshtoq qismlari madrasa misolida:**

1-peshtoq; 2-kitoba; 3-ravoq; 5-qanos.  
Peshtoqdan alohida 4-guldasta.

O'rta Osiyoda saqlanib qolgan peshtoqlarning eng qadimiy namunasi Arab ota maqbarasidir. Peshtoq koshin va sirkor parchinlar, girihhamda diniy va falsafiy mazmundagi kitobalar bilan bezatilgan. Ulug'bek, Sherdor, Tillakori, Nodir devonbegi, Abdulazizzon madrasalarining peshtoqi o'ziga xos milliy me'morlik uslubida serhasham bezatilgan.

**Ulug'bek madrasasi** o'z davri talablariga to'la mos ravishda musulmon qonunlari asosida qurilgan. Bu Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqdagi ma'naviy-ma'rifiy muassasaning klassik namunasidir. Ulug'bek madrasasi 2 qavatl, to'g'ri to'rtburchak tarhli ( $56 \times 81$  m.). Bosh tarzi maydonga qaragan,



*I-rasm. Ulug'bek madrasasi*


<sup>1</sup> Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti - "Ma'daniy meros ob'ektlarini asrash" kafedrasini o'qituvchisi nigorasadullayeva21@gmail.com

<sup>2</sup> Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universiteti talabasi 101-MMOA guruh talabasi

mahobatli peshtoq mujassamotida keng toqili ravoq (balandligi 16,5 m.), uning 2 yonida guldastalar (balandligi 32 m.) bor. Ravoq tepasidagi yulduzli osmon aks etgan qanos bezaklari o'ziga xosdir. Guldasta tepasi muqarnas, sharaflar bilan yakunlangan. Peshtoq ravog'i cheti morpech shaklida, tokchasidagi namoyonlar o'ziga xos uslubda pardozlangan. Peshtog'i, guldastasi va tashqi devorlarida girih naqshining turli betakror namunalari aks etgan. Ganchkori panjaralar orqali xonaga yorug'lik tushib turadi. Moviy va ko'k koshin hamda sopol gishtlar vositasida Samarqanddagi Ulugbek madrasas geometrik naqshlar bilan bezatilgan devor satqi yozuvlar bilan o'zaro uyg'unlashib, ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Peshtoq orqali chorsи hovli (30×30 m.)ga o'tiladi. Hovli atrofi 2 qavatl hujralar (48 ta) bilan o'ralgan, har bir qujra qaznoq, yotoqxona, umumiy xonadan iborat. Madrasanining shimol va janub tarzları o'rtasida tashqi tomondan alohida peshtoqlar bor. Madrasanining 4 tomonini darsxona va ayvon egallagan. Masjid (22×8 m.) janubi sharqiy tomonga cho'zilgan. Tashqi to'rburchagida 4 ta baland minora bor. Xonaqoh va ba'zi hujralar ichkarisi naqshin bezaklar bilan pardozlangan. Bezaklari orasida kufiy va suls yozuvlari uchraydi. Vayron bo'lgan 2-qavati, qiyshaygan guldastasi, devorlaridagi ko'chib ketgan bezaklar qayta tiklangan.

## *2-rasm. Arab ota maqbarasi.*

**Arab ota maqbarasi** - Samarqand viloyati Tim qishlog'idagi me'moriy yodgorlik, mil.977/8 (hijriy 367). Me'mori noma'lum. Poydevo-ri toshdan, devorlari chorsи g'ishtdan (23X23X4 sm) ganchxok bilan terilgan. Binoning umumiy tarhi murabba (560X560 sm). Usti gumbaz bilan yopilgan. Devor va gumbaz orasidagi 4 kunjak yirik muqarnas kosalar shaklida. Ustunlar naqshli. Bu bejirim ustunlar xonaga shinam va ulug'vor ko'rinish beradi. Maqbaraning ko'rki uning mahobatli peshtoqidir. G'ishtlar turli tartibda juftlab terilgan, choklar qatoriga ganchkori naqshlar kiritilgan. Peshtoq poyalarida kufiy yozuvlari bor. Ravoq tepasidagi uch mehrobsimon tokchalar mayda naqshlar bilan bezalgan. Arabota maqbarasi Mavarounnahrda saqlanib qolgan eng qadimgi musulmon maqbaralaridan biri. Maqbara me'moriy tuzilishi jihatidan katta ahamiyatga ega. Uning peshtoqi o'sha davrda yaratilgan shu turdagи binolarning dastlabki yetuk namunasi bo'lib, 11—12-asrlar me'morligining rivojiga ta'sir etgan.



**Tillakori madrasasi**, Samarqanddagi me'moriy yodgorlik. Registon ansamblida Ulug'bek davrida bunyod etilgan Mirzoyi karvonsaroyi (15-asr) o'rnida Samarqand hokimi Yalangto'shibiy Bahodir Madrasa va jome masjid qurdirgan (1641—46). Karvonsaroy asosi ustiga Madrasa (shim. sharqiy qismida), hujralar o'rnida peshtoq gumbazli masjid (g'arbida) joylashgan. Dastlab "Yalangto'shibiy kichik madrasasi" deb nomlangan. Keyinchalik masjid bezagida boshqa bir obida qurilishiga yetadigan miqdorda oltin sarflangani uchun "tillakori" (tilladan ishlov berilgan) deb yuritila boshlagan. Tilla Kori madrasasidan shahar jome masjidi va Madrasa sifatida foydalilanilgan. Shuning uchun masjidi (63x22 m) katta va serhashamligi bilan boshqa madrasalardan ajralib turadi. Madrasa (70x70 m) ga g'arbiy peshtoq orqali kiriladi. Peshtoq chuqur ravoqli, 2 qanotining oldi ravoqli, 2-qavatl hujralar, burchaklarini teng hajmdagi guldasta mezanalar egallagan. Masjid xonaqohi (10.8x10.8 m)ning poygumbazi baland, uzoqdan ko'zga tashlanib turadi. Uning gumbazi nihoyasiga yetkazilmagan.

**3-rasm. Tillakori madrasasi**

Xonaqoh to‘riga marmardan mehrob va zinapoyali minbar ishlangan. O‘z davrida zarhal naqshlar bilan jozibador bezatilgan xonaqohning 2 yonini oldi ravoqli, gumbaz tomli ayvon (yo‘lak)lar egallagan. Peshtoq ravog‘idagi marmar taxtachada bezak ishlari 1659—60 yillarda bajarilganligi yozilgan.

1817-yilda amir Haydar buyrug‘i bilan zilziladan zarar ko‘rgan peshtoq‘i qayta tiklanishi jarayonida shakli buzilgan. 1885 yildagi ta‘mir vaqtida zarhal naqshlar oddiy bo‘yoklar bilan almashtirilgan. Tilla Kori madrasasida Samarqand ta‘mirlash ustaxonasi tashkil etilib (1930), koshinlarning qad. rangini topish yo‘lida tadqiqot ishlari olib borilgan. Tilla Kori madrasasidagi yo‘qolib ketayozgan noyob zarhal naqshlarni ustalar ilmiy o‘rganib, qayta tikladi.

**4- rasm. Tillakori madrasasi ichki gumbazining  
ost ko‘rinishi**

Binokorlar madrasaning Registonga qaragan peshtoq‘ini Sherdor Madrasa va Ulug‘bek madrasasi bilan moslashtirib qayta qurdi. Peshtoq ravog‘i va ravoq ichidagi qalqonsimon bag‘ali, guldastasi hamda xonaqoh gumbazi, ichidagi tilla halli bo‘rtma naqshlari qayta jilolandi (1974). Baland gumbazi ustiga feruza rang koshin bilan qoplangan gumbaz o‘rnatildi. Bosh tarzidagi bezak mavzularining boyligi, ichki va tashqi naqshlarning serxashamligi, peshtoq qanosi va tokchasi dagi iroqi kashtani eslatuvchi bezaklar, bo‘rtma yozuvlar o‘ziga xosdir. Ravoq burchaklari, bezakli toqilarni to‘ldirishda koshinpaz ustalar turli usullarni qo‘llashgan (g‘ishtlarning mayda naqshlari koshinlarning handasiy va islimiylar bilan moslashtirilgan). Koshinkori ravoqlarda yashil tangachalar, sarg‘ish yaproqlar va feruza poyalar aks ettirilgan. Xonaqoh izorasi koshinnamoyon, devori, gumbazi va bag‘ali kundal uslubidagi serhasham naqshlarga boy.



### 5-rasm. Tillakori madrasasi yon tarafdan ko‘rinishi

Tillakori madrasasining ichki qismida joylashgan “Minbar” eshiklar murakkab naqsh va yozuvlar bilan yog‘och o‘ymakorligida pardozlangan. Hovli saxni (50x50 m)ga marmar yotqizilgan. Atrofidagi hujralarga eshik, tobardoniga panjaralar ishlangan. Hujralar yoz kunlari ham salqin bo‘ladi. Tilla Kori madrasasida muzey tashkil etilgan bo‘lib, unda madrasani ta’mirlashga oid narsalar saqlangan.

**Nodir devonbegi madrasasi** (asl nomi: Nadr devonbegi madrasasi) — Buxorodagi me’moriy yodgorlik. Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir devonbegi (Nodir mirzo Tog‘ay ibn Sulton) qurdirgan (1622—1623). Nodir Devonbegi madrasasi Buxoroning eski shahar qismida joylashgan. Labi-hovuz ansamblining sharqiy qismida joylashgan. Hozirgi kunda madrasa O‘zbekiston moddiy va madaniy me’rosining ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan.



### 6-rasm. Nodir devonbegi madrasasi.

Dastlab karvonsaroy sifatida qurilgan, xonning qarori bilan madrasaga aylantirilgan. Unda madrasalarga xos ayvon, masjid va katta darsxona yo‘q, hovli atrofi 4 tomondan 2 qavatlari kichik hujralar bilan o‘ralgan. Hujralarga o‘ymakori usulida bezatilgan eshiklar, eshiklar tepasidagi tobadonga panjaralar o‘rnatilgan. Hovliga pishiq g‘isht yotqizilgan. Bosh tarzi maydonga qaragan. Old tomonida hovuz bor. Peshtog‘i o‘ziga xos mahobatli va serhashamdir. Undagi o‘simliksimon naqshlar orasida quyoshga intilayotgan afsonaviy xumo qushi va bug‘uning o‘tlab yurgan tasviri koshinkori bezaklari yorqin bo‘yoqlarda aks ettirilgan. Hoshiyalariga, kitobasiga arabiylar yozuvlar bitilgan. Ustungo‘sashi buramasimon. Peshtog‘ining 2 yon qanotidagi 2 qavatlari 3 tadan chuqur ravoqli peshayvon aloqida zeb berib pardozlangan. Burchaklaridagi 2 guldasta ravoqlardagi naqshlar bilan o‘zaro uyg‘unlashgan. Madrasa tarhi 52x49 m, hovli 34 xZO m. Nodir Devonbegi madrasasi bir necha marta ta’mirlanib, gumbaz, ravoq va devorlaridagi namlik yo‘qotilib, buzilib ketgan hujralari qayta tiklandi. Samarqand va Buxoro ustalarining sa'y harakatlari bilan bosh tarzi qayta jilolandi.

**Xulosa:** Ushbu manbada keltirilgan malumotlar yani peshtoqlar asosan madrasa old qismida joylashgan bolib unda islamiy, grih va turli bezaklar ishlatiladi. Yuqorida sanab o‘tilgan maqbaralar masjidlargarga esa ko‘rk berib turadi. Peshtoqlar qadimdan qollanib kelinib maqbaralarda asosiy elementlardan biri hisoblanadi. Unda ishlatiladigan bezaklar alohida uslubni tashkil etadi

**Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Marjona, K., & Nigora, S. (2023). BASIC PRINCIPLES ADAPTATION OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN. *Science and Innovation*, 2(11), 68-70.
2. Nigora, S. (2023). STUDY AND SCIENTIFIC ANALYSIS OF CONSTRUCTIVE SOLUTION OF ARCHITECTURAL ELEMENTS USED IN CULTURAL HERITAGE OBJECTS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 602-605.
3. Nigora, S., & Marjona, K. (2023). OZBEKISTON HUDUDIDAGI MADANIY MEROS OBYEKTLARIDA QOLLANILGAN ARXITEKTURAVIY ELEMENTI: SHARAFA VA MUQARNASNING QOLLANILISH VA YASALISH BOSQICHLARI. *Miasto Przyszłości*, 42, 128-132.
4. Nayimovna, F. N., & Nigora, S. (2023). Researching Ways to Reconstruct the Areas of Historical Objects of Old Cities in Uzbekistan. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 2(2), 95-98.
5. Salimov, O. M., Gayratovna, I. D., & Nigora, S. (2022). Use of Local Building Materials in the Natural Climate of Central Asia. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 8, 129-130.
6. Gayratovna, I. D., & Nigora, S. (2022). USE OF LOCAL RAW MATERIALS IN THE REPAIR OF PATTERNS AND DECORATIONS OF CENTRAL ASIAN ARCHITECTURAL MONUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 679-683.
7. Ruxshona, A., & Muxlisa, N. (2024). RECONSTRUCTION AND RESTORATION WORK CARRIED OUT AT THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX. *Excellencia: International Multidisciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(4), 89-97.
8. Azizbek, T., & Damirjon, A. (2024). Ancient Monument in our Country “Ishratxona”. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 994-999.
9. Sa’dullayeva Nigora, X. S. (2024). Stages of Formation and Application of "Gothic" Architectural Style. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 1004-1008.
10. Qaxramonovich, A. K. (2024). XONBANDI TO’G’ONI. *Miasto Przyszłości*, 45, 606-611.
11. Oybekovna, I. S. QASHQADARYO VILOYATI KO’K GUMBAZ MASJIDI.
12. Dilrabo, K. (2023). PROBLEMS IN THE RECONSTRUCTION OF DECOR ELEMENTS OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 633-637.
13. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). Amir Temur And The Architectural Decorations Of The Timurid Era Of Central Asia And Their Characteristics. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture* (2993-2637), 1(9), 121-125.
14. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). ESTABLISHING AN EXEMPLARY CULTURAL AND RECREATION PARK COMPLEX. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 2(11), 50-54.
15. Yuldasheva, M. K., & Kamilova, M. E. (2023). ANALYSIS OF FOREIGN AND DOMESTIC EXPERIENCE IN DESIGNING HISTORICAL LOW-RISE RESIDENTIAL BUILDINGS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(3), 147-152.
16. Ulugbek, T., & Marjona, K. (2024). Revitalizing Old Facades: Innovations in Façade System Installation and Preservation. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 25(1), 10-21070.
17. Marjona, K., & Iroda, S. I. (2023). THE ESSENCE OF THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX IN OUR CULTURAL HERITAGE AND ITS SIGNIFICANCE TODAY. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 662-665.



18. Тошев, И. И., & Ураков, О. Х. (2017). Трёхмерная графика. Журнал "Интернаука", (3 (7)), 25.
19. Жураев, Т. Х., Хамраев, Н. Ш., Ураков, О. Х., Абдуманнонов, М., & Сайдова, Г. К. (2020). РЕШЕНИЕ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ПОСТРОЕНИЯ ПЛОСКИХ СОПРЯЖЕНИЙ ГЕОМЕТРИЧЕСКИМ МОДЕЛИРОВАНИЕМ ДЛЯ НАПРАВЛЯЮЩИХ ПОВЕРХНОСТЕЙ РАБОЧИХ ОРГАНОВ. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 346-348).
20. Тошев, И. И., & Ураков, О. Х. (2017). Резьба по дереву в Узбекистане. Интернаука, (2-1), 11-13.
21. Khayitboevich, U. O., & Gulnoza, U. (2023). THE HISTORY OF CERAMIC DECORATIONS APPLIED TO CULTURAL HERITAGE OBJECTS. American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637), 1(10), 210-215.
22. Khayitboyevich, U. O., & Dilshoda, B. (2023). ENGINEERING CONSERVATION OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 517-520.
23. Xayitboyevich, U. O. (2023). NUROTA VOHASINING TURAR JOYLARNING KOMPOZITSION VA REJAVIY-TARXIY YECHIMI. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 171-174.
24. Khayitboevich, U. O. (2023). Repair Works Carried Out In The Architectural Monuments Of The City Of Nurota. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 4(11), 56-61.
25. Khaitboevich, U. O. (2021). Ancient nurata karizs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 115-120.
26. Жураев, Т. Х., Волошинов, Д. В., & Ураков, О. Х. (2020). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЛАБОРАТОРИИ ГЕОМЕТРИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В РАЗРАБОТКЕ РАБОЧИХ ОРГАНОВ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ТЕХНИКИ. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 95-97).
27. Abduazizovich, R. L. The Mausoleum of Humayun. International Journal of Scientific and Technology Research, 5, 7.
28. Abduazizovich, R. L. Babur's Creativity From Central Asia To India.
29. Abduazizovich, R. L., & Kilichevich, L. D. (2022, November). DEVELOPMENT OF ISLAMIC ARCHITECTURE AND ITS IMPACT ON INDIAN ARCHITECTURE. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 1-5).
30. Abduazizovich, R. L. (2022). ANALYZING THE TOMB OF BABUR IN KABUL. American Journal of Applied Science and Technology, 2(11), 01-05.
31. Rahimov Laziz Abduazizovich PhD, & Uralov Axtam Sindarovich. (2023). BABUR - THE PRINCE OF GARDENS. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 2(10), 1–8. Retrieved from
32. Abduazizovich, R. L. (2022). ANALYSIS OF HUMAYUN'S QILA-I-KUHNA MOSQUE. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(10), 269-275.
33. Abduazizovich, R. L. (2021). Din-panah The City Of Humayun. European Scholar Journal, 2(10), 52-54.
34. Rahimov, L. A. (2018). MOSQUES OF BABUR. In Сборник конференций (pp. 202-206).

